

O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASHDA AUTENTLIK MASALALARIGA DOIR

Bakiev Xabibulla Maxamatjanovich

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti katta o'qituvchisi.

E-mail: khabibullabakiev@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'qib tushunish malakasini baholashda autentlik me'zonlarining pedagogik o'lchovlar doirasida chuqur ahamiyatini tahlil qilish bilan bir qatorda ushbu me'zonlarning tadriji xususida so'z yuritadi. Bundan tashqari, maqolada testlarning aks ta'siri (washback) natijasida ta'lim tizimi, insonlar ongi va ular yashaydigan jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlar xususidagi tahlillar taqdim etiladi. Til imtihonlarining aks ta'sir effekti natijasida o'quv dasturlari va o'qitish metodlarida shakllantiradigan zarur ba'zi tamoyillari ochib beradi.

Kalit so'zlar: pedagogik o'lchovlar, autentlik, o'qib tushunish malakasi, til sertifikatlari, aks ta'sir effekti.

Аннотация: В статье анализируется глубокая значимость критериев аутентичности в рамках педагогических мер при оценке навыков понимания прочитанного, а также оценка этих критериев. Кроме того, в статье дан анализ изменений, которые происходят в системе образования, сознании людей и обществе, в котором они живут, в результате обратной реакции теста. Выявляются некоторые необходимые принципы, формирующиеся в учебной программе и методах обучения, возникающие как следствие обратного эффекта языковых тестов.

Ключевые слова: педагогические меры, аутентичность, навыки понимания прочитанного, языковые сертификаты, обратный эффект.

Abstract: The article analyzes the deep significance of the criteria of authenticity in the framework of pedagogical measures in the assessment of reading comprehension skills, as well as the evaluation of these criteria. In addition, the article provides an analysis of the changes that occur in the education system, people's minds and the society in which they live as a result of the test's washback. It reveals some necessary principles that form in the curriculum and teaching methods which take place as a consequences of washback effect of language tests.

Keywords: pedagogical measures, authenticity, reading comprehension skills, language certificates, washback effect.

Xorijiy tilda o'qib tushunish malakasini baholashga qaratilgan testlarning birlamchi maqsadi o'rganilayotgan tilning autentik manbalaridan foydalangan holda o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlashtirishni o'z ichiga oladigan tizimni yaratishdir. Testlar o'quvchilarning o'qib tushunish malakasining turli jihatlari bo'yicha ko'nikmalarini monitoringiga qaratilgan bo'lib, ularning yutuqlarini nazorat qilish va o'quv dasturini qay darajada o'zlashtirilganligini ko'rsatib beradi. Olingan natijalar ikkinchi tilni o'qitishda qo'llanilgan metodika hamda o'quv jarayonini baholash imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayoni uch asosiy **komponentdan** (tarkibiy qismdan) tashkil topadi:

- Ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari (curriculum);

- O'qitish metodikasi va o'quv materiallari (pedagogy);
- Baholash usullari (assessment). [Jalilov K. 2020:8].

Baholash usullari orqali ta'lim tizimining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga qay darajada erishganligini aniqlaydi. Til o'rganuvchilar egallashi kerak bo'lgan **domen** (bilim, ko'nikma va malakalar) pedagogik o'lchovlarning obyekti hisoblanadi. Ya'ni **pedagogik o'lchovlar** – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini o'lchash (aniqlash), usullari va vositalari ishlab chiqadigan hamda amalda qo'llaydigan pedagogika sohasi. [Jalilov K. 2020:9]. Shu jumladan, tilni bilish darajasini baholash nafaqat amaliy tilshunoslik balki ta'limning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning natijalarini tahlil qilish orqali o'rganuvchilarining o'zlashtirishi haqidagi birlamchi ma'lumotni qo'lga kiritish bilan bir qatorda xorijiy til sinovlarining ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ahamiyatini ham kashf qilinishi mumkin. Umuman, baholash umumiy o'rta ta'limda ta'lim oluvchilarning o'qitish jarayonida Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlovchi, tekshiruvchi mexanizm hamda mezon va tartiblardir. [Abduraimov Sh., 2021:12]. Xorijiy tilni bilish darajasini aniqlovchi sinovlar soha sifatida amaliy tilshunoslik va ta'limiy o'lchovlarning topilmalari hamda bilimlariga asoslansa, ijtimoiy va siyosiy jihatdan jamiyat a'zolarining taraqqiyoti belgisi, davlat boshqaruv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Amaliy tilshunoslikning tegishli bilimlari va ma'lumotlari tilning rasmiy belgilar tizimi sifatida tabiati (tovushlar, gaplar, harflar, so'zlar, matnlar), uning kognitiv va ijtimoiy o'zaro muttanosibligini o'z ichiga oladi. Pedagogik o'lchovlari haqida gap ketganida, tegishli bilim va ma'lumotlar o'lchovining nazariy va matematik modellarining tabiati nazarda tutiladi. Shuningdek, u baholashning mantiqiyliigi, undan ko'zlangan maqsadning amaliy zarurati, sinov natijalarini izohlash uchun lozim bo'lgan amaliy dalillar, tahlillar va empirik metodlarni o'z ichiga oladi. Test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirish insonga sifatli ta'lim sari yo'l ochishi va aksinchi sinovdan o'ta olmaslik uni o'zi istamagan hayot tarziga yo'naltirishi mumkin. [Shohamy E., 2016:43]. Chet tilini bilish sertifikatiga ega shaxs oliy ta'limga kirish davri va undan keyingi bosqichlarda bir qator ustunliklarga ega bo'lishi barobarida o'z jamiyatida munosib o'rnini topadi. Bir nechta davlatlar tomonidan o'z siyosatida xorijiy tilni bilish haqidagi tan olingan sertifikatni boshqaruv quroli sifatida qo'llanishi amaliyotda ko'p uchramoqda. Til testlari, shuningdek, immigrantlar oqimini nazorat qilish, ularning yashashi, boshqa davlatda fuqarolik olish imkoniyatiga ega bo'lishi, ta'lim muassasalariga kirishni nazorat qilish va boshqa funktsiyalar qatorida mehnat bandligini ta'minlash uchun ham qo'llaniladi. [McNamara T., 2010:7]. Testlarning shaxsning deyarli barcha sohalaridagi faoliyatiga ta'sir qilishi baholash jarayonlarini chuqur tadqiqini talab etadi.

O'tgan asrning 70-yillarida xorijiy tillarni kommunikativ o'qitish metodlari bilan paydo bo'lgan autentlik tamoyili nafaqat amaliy tilshunoslik balki ta'lim tizimining ko'p sohalarining ajralmas bir qismi sifatida o'z o'rnini egalladi.

Autentlik tamoyili tilni bilish darajasini aniqlashda qo'llaniladigan sinovlarning muhim xususiyatlaridan biri sifatida qaraladi. Lekin shunday ahamiyatli talab oddiygina kundalik hayotda uchraydigan materiallardan foydalanishni taqazo etadi. O'qib tushunish malakasini baholashda qo'llaniladigan "matnlar, vazifalar va kontekstlar "hayotiy" bo'lsagina foydalidir". [Grabe W., 2019:357]. Ya'ni, autentlik tamoyili testning muhim jihati hisoblanadi, chunki u xorijiy tilning test va kunlik hayotda foydalanish ortasidagi o'xshashlikni talab etadi. Autent yondashuvning kelib chiqish tarixi Jon Kerrol tomonidan yaratilgan integrativ testlar bilan bog'liq. U diskret yondashuvli testning kamchiligi sifatida o'zlashtirilayotgan tildan foydalanish (O'TF) xorijiy tilni bilish darajasini baholaydigan testlarda inobatga olinmasligi tanqid qilgan. [Carrol B., 1961:33-

38]. va keyinchalik kommunikativ kompetensiyani baholashga yo'naltirilgan testlarni yaratgan edi. L.Baxmen va A. Palmer O'TF domenini "imtihon oluvchi testdan tashqari tildan foydalanadigan vaziyat yoki kontekst" sifatida belgilaydi. [Baxmen L., 1996:18]. O'TF kommunikativ kompetensiya tushunchasi bilan o'zaro ma'nodoshdir.

Jon Kerrol shunday degan edi:

Til bilimi va malakasining juda aniq ob'ektlari uchun test ... zarur va tavsiya etilgan yondashuv turidir. . . Menimcha, tilni bilishni baholash (yoki tilni bilish darajasining spetsifikatsiyasi) qoniqarsiz. . . imtihon oluvchi tomonidan integratsiyalashgan, oson ishlashni talab qiladigan yondashuv zarur. Ma'lumki, bilimlar mustaqil mavjud bo'lishi mumkin. Agar biz o'zimizni bir vaqtning o'zida faqat bitta nuqtani sinab ko'rish bilan cheklab qo'yadigan bo'lsak, fikr yuritish uchun odatdagi aloqa holatidan ko'ra ko'proq vaqt ajratiladi. . . . Shuning uchun men maxsus lingvistik va leksikologik xususiyatlariga nisbatan kamroq e'tibor qaratidigan testlarni tavsiya qilaman. . . . Darhaqiqat, ushbu "integratsion" yondashuv "diskret jihatli" yondashuviga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. [Baxmen L., 1990:300].

Xorijiy tilni bilish darajasini aniqlovchi sinovlarda O'TFning (kommunikativ kompetensiya) muhimligi haqida Jon Kerrol va Layl Baxmendan tashqari, J. Linch [Lynch J., 1982:50-55] hamda C. Ueyr [Weir C., 2005:30-33] kabi tilshunoslar ham ta'kidlab o'tgan.

J. Lukovich Layl Baxmendan quyidagi iqtibosni ketiradi:

Holatiy autentlik - test topshiriqlari xususiyatlari bilan o'zlashtirilayotgan tildan foydalanish (O'TF) topshiriqlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikdir. Test topshiruvchi va test topshirig'i o'rtasidagi yuz beradigan aloqa **ikki qirrali autentlikdir**. [Lewkowicz, J., 2000:48].

Shu orqali J. Lukovich L.Baxmen autentlik test mashqlarini O'TF topshiriqlariga moslashtirishdan tashqari talabgorlarning test sinoviga kirishishi ham autentlik tamoyilining talabi ekanligiga urg'u berishini ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, holatiy autentlik test topshirig'i va kommunikativ kompetensiya etikasi o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etsa, o'zaro autentlik test topshirig'i va talabgor o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Keyinchalik L.Baxmen A.Palmer bilan olib brogan tadqiqotlar natijasida o'zaro autentlik termini **interaktiv autentlik** termini bilan almashtirgan. Chunki ushbu termin test topshiriqlari va talabgorlarning o'zaro kirishishi natijasida o'ziga xos muloqotni kengroq ochib bergan. [Lewkowicz, J., 2000:49].

Testlarning ta'lim tizimida o'qitish va o'rganishga bo'lgan ta'siri aks ta'sir effekti deb nomlanadi. [Alderson, J., 1993:115-129]. Sinov yo'nalishi, turi, topshirilishi va mazmunining ta'lim va ta'lim boshqaruviga bo'lgan ta'siri o'rganiladi. Qisqa qilib aytganda, aks ta'sir effekti tilni bilish testlarining nazariyasi, o'qituvchining individual fikrlashi va talabalar motivatsiyasini o'rganib, ta'lim mazmunini belgilaydi. [Alderson Ch., 2001:2-3]. "Aks ta'sir (washback yoki backwash)" atamasi o'rniga boshqalar sinonimlar foydalanishimiz mumkin. Masalan, test ta'siri (test impact), tizimli validlik (systematic validity), natijaviy validlik (consequential validity), test natijalari bo'yicha fikr-mulohazalar (test feedback), o'quv rejasini moslashtirish yoki sinovlarga yo'naltirilgan ta'lim (E. Shohamy ta'biri bilan aytganda curriculum alignment,) shular jumlasidandir. [Большакова Г., 2014:118]. Xorijiy til yoki istalgan fanni o'qitishda pedagoglar talabalar tomonidan "Bu savol testda tushadimi?", "Testlarni qaysi adabiyotdan olasizlar?" yoki "OTM kirish imtihonlarida savollar qaysi manbaalardan olinadi" degan bir qator shunga o'xshash savollarga tez-tez duch keladi. Bu tendensiyaning keng tarqalishining sababi ta'lim muassasalari hamda ta'lim oluvchilar o'z faoliyatini test talablariga moslashtirishidir. Chunki sinov natijalari o'quvchilarning kelajagi uchun juda muhim va ta'lim yoki ijtimoiy ravnaqning keyingi bosqichiga test sinovi orqali o'tiladi. Ushbu tamoyil bundan tashqari, o'qituvchi va o'quvchi

muvaffaqiyatining o'lhovidir. Samuel Messik aks ta'sir effektini "testdan foydalanish til o'qituvchilari va o'quvchilariga o'rganishni rag'batlantiradigan yoki to'xtatib qo'ymaydigan narsalarni qilishga ta'sir qilish darajasi" [Messick S., 1994:241-256] deb ta'riflaydi.

Ushbu tamoyil nafaqat o'qituvchi va o'quvchilarni faoliyatlarini tartibga soladi balki ta'lim muassasi rahbariyati hamda ota-onalarni ham ma'lum yo'nalishga e'tiborini qaratadi. Stefen Andryus asosli ravishda aks ta'sir effektini "testlar, ayniqsa, davlat imtihonlari, dars jarayonlari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalariga ta'sir qiladi" [Andrews S., 1994:70-75] deb ta'kidlaydi. Shuning uchun testlarning taxminiy ta'sirini yaxshiroq tushunish va boshqarish, xususan, o'quv dasturlari innovatsiyasini rag'batlantirish sohasida aks ta'sir tamoyili bo'yicha ko'proq tadqiqotlar o'tkazish zarurdir.

I.Bolshakova G.Mado taklif etgan aks ta'sir effekti natijasida o'quv dasturlari va o'qitish metodlarida shakllanadigan juda muhim bir qancha tamoyillari haqida so'z yuritadi:

1-tamoyil: Testlarning shaxslarga, muassasalarga, o'quv dasturlariga va o'quv jarayoniga ta'sir ko'rsatish qobiliyati pertseptiv hodisadir. Haqiqat qanday bo'lishidan qat'iy nazar agar talabalar, o'qituvchilar va mas'ullar imtihon natijalarini muhim deb hisoblasa, ular uchun bu reallikdir. Natija doim odamlar o'zi tog'ri deb ishongan maqsadga erishishidir.

2-tamoyil. Ijtimoiy qarorlar qabul qilishda bir xil miqdoriy indikatorlarning takroran qo'llanishi o'zi boshqarishi lozim bo'lgan ijtimoiy jarayonga salbiy ta'sirini anglatadi.

3-tamoyil. Agar test natijalari muhim qarorlar qabul qilishda ahamiyatga ega bo'lsa, u holda o'qituvchilar shundan kelib chiqib, o'z faoliyatini muvoffiqlashtiradi.

4-tamoyil: Yuqori ahamiyatli sinovlarda (high-stakes) qo'llaniladigan har qanday muhitda imtihon an'analari rivojlanadi hamda ular yakunda o'quv dasturining mazmunini aniqlaydi.

5-tamoyil. O'qituvchilar asosiy e'tiborni yuqori ahamiyatli sinovlarda qo'llaniladigan (masalan, bir nechta tanlov savollari va boshqalar) savollar shakliga qaratadi va o'z izlanishlarini ular asosida quradi. Muammo shundaki, savolning o'zi boshqa ko'nikmalarga zarar yetkazishi va ta'lim olish uslublarini toraytiradi.

6-tamoyil: Sinov natijalari ta'lim yoki boshqa sohalarida ustunlikni ta'minlashning yagona vositasi bo'lsa, jamiyat unga muvaffaqiyatning asosiy kaliti sifatida qaraydi.

7-tamoyil: Yuqori ahamiyatli sinov shakllari o'quv rejasi ustidan nazoratni imtihonni qabul qiluvchi muassasa qo'liga topshiradi.

Achinarlisi, bazan davlat ta'lim sohasi ustidan real hokimiyatni beruvchi ushbu vakolatlarni moliyaviy manfaatlarni birlamchi hisoblovchi tijorat tashkilotlariga o'tkazishi mumkin. [Большакова Г., 2014:120]. Tijorat tashkilotlari o'z biznes manfaati yo'lida doim ham shaffof tizim yoki yuqori mas'uliyat bilan imtihonlarni tashkillashtirmasligi mumkin. Natijada, millat taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiluvchi ta'lim tizimi bu bo'g'inda nazoratsiz qolishi mumkin.

Testlarning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning natijalarini o'zaro taqqoslash uchun ma'lumotlar zaxirasini shakllantirishdir. Ta'limning turli hududlar va bo'g'inlar kesimida test natijalari bir biridan farq qilishi ta'lim jarayoniga mas'ullar uchun taqqoslash imkoniyatini berib, ularning e'tiborini qaratish kerak bo'lgan muammolarni ko'rsatib beradi. Qolaversa, test natijalari ta'lim tizimiga rivojlanish yo'lida navbatdagi vazifalarni belgilab berishda vositachi ro'lini ham bajaradi. Ta'lim jarayonlariga bilvosita aloqador bo'lgan ota-onalar va jamoatchilik esa test natijalari asosida hududlardagi ta'limni rivojlantirishda qatnashishlariga turtki bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimov Sh. Ona tilida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy metodik asoslari: fal.dok... dis -T.: 2021..
2. Alderson, J. C., & Wall, D. Does washback exist? *Applied Linguistics*, 14(2). 1993.
3. Carroll, B. J. Fundamental considerations in testing for English language proficiency of foreign students. *Testing the English proficiency of foreign students*. Center for Applied Linguistics. 1961.
4. Charles Alderson. Plenary address to the ALTE Conference, Barcelona, Cambridge University Press. Iyul, 2001.
5. Elena Shohamy. Power of tests: a critical perspective on the uses of language tests. 2016.
6. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari (Testologiya, pedagogic o'lchovlar). Akdemnashr. Toshkent 2020.
7. Lewkowicz, J. A. Authenticity in language testing: some outstanding questions. *Language Testing*, 2000.
8. Lyle Bachman and Adrian Palmer. *Language Testing in Practice*. Oxford University Press. 1996.
9. Lyle Bachman. *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford University Press. 1990.
10. Lynch, A. J. (1982). Authenticity in language teaching: some implications for the design of listening materials. *British Journal of Language Teaching*.
11. Samuel Messick. Validity and washback in language testing. *Language Testing*. Educational Testing Service, Princeton, NJ. 1994.
12. Stephen Andrews. Washback or washout? The relationship between examination reform and curriculum innovation. *Proceedings of the International Language in Education Conference*, Hong Kong: University of Hong Kong. 1994.
13. Tim McNamara. The use of language tests in the service of policy: issues of validity. *Dans Revue française de linguistique appliquée* 2010.
14. Weir, C. *Language testing and validation: an evidence-based approach*. Palgrave Macmillan. 2005.
15. William Greyb. *Reading in a Second Language: Moving from Theory to practice*¹. Cambridge University Press. 2009.
16. И. Г. Большакова. ОБРАТНОЕ ВЛИЯНИЕ ТЕСТИРОВАНИЯ НА ОБУЧЕНИЕ (WASHBACK) КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОЙ ТЕСТОЛОГИИ. *Вестник СПбГУ*. Сер. 9. 2014.